



ARTICLE INFO

Received: 01st October 2022

Accepted: 05th October 2022

Online: 12th October 2022

KEY WORDS

Muzey, tarixiy yodgorlik, turistik marshrut, ekskursiya xizmati, urf-odat, qadriyat, turistik markaz, tarixiy yodgorlik, me'moriy majmua, ansambl, daha, maydon, guzar, xonaqoh, masjid, madrasa, arxeologik yodgorlik.

Hozirgi vaqtda butun dunyoda, shuningdek O'zbekistonda ham turizm sohasiga e'tibor tobora kuchayib bormoqda. Insonlar bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazib, dam olishga, sog'ligini tiklashga, dunyoni, xalqlarning urf - odatlari, qadriyatlarini bilishga intilmoqdalar. Bunday xizmatlarni turizm sohasi ko'rsatadi. Shuning uchun ham keyingi yillarda O'zbekistonda turizmni rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan masalalarga juda ham katta e'tibor berilib, uning turistik salohiyatidan samarali foydalanish yo'llari shakllanmoqda va qaror topmoqda. Shuni hisobga olish kerakki, O'zbekiston turizmni rivojlantirishning barcha imkoniyatlariga ega. Birinchi navbatda, boy tarixiy merosi, an'analari, o'ziga xos tabiati, ya'ni turistik resurslarga boyligi buning tasdig'idir. Sohoni rivojlantirish uchun albatta, turizm tarixi,

MUZEY VA TARIXIY YODGORLIKLARDA TURISTIK MARSHRUTLAR VA EKSKURSIYA XIZMATI FAOLIYATI

Sayfullayeva Yulduz Yashinovna

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7189099>

ABSTRACT

Mazkur maqolada muzey va tarixiy yodgorliklarda turistik marshrutlar va ekskursiya xizmati faoliyati tadqiq etilgan. Xususan, O'zbekistonning shaharlari bo'ylab tarixiy-madaniy yodgorliklari bilan tanishish uchun tashkil etilgan turistik marshrutlar hamda turizmni rivojlantirishning barcha imkoniyatlari o'z ifodasini topgan. Shu bilan birga turistik marshrutlarni tashkil etish va nazorat qilish sifatini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

uning kamchilik va yutuqlari, ekskursovodlik faoliyati haqida mukammal bilimga ega bo'lish kerak.

1960 yilgacha O'zbekistonda asosan ichki turizm rivojlangan. Ishchi va mehnatchilar uchun dam olish kunlarida alohida poyezd vagonlari tashkil etilgan, arzonlashtirilgan putyovkalar berilgan. Sayoxatchilarni ham asosan tog' dam olish maskanlari, kurort zonalar, suv havzalari qiziqtirgan.

1960 yillardan keyingina O'zbekistonning tarixiy ob'ektlariga bo'lgan qiziqish tashqi turizm salmog'ini oshiradi. Endilikda turistlarni ko'ngilochar sayrlar emas, ko'proq tarixiy ob'ektlar, xali kashf qilinmagan yerlar jalb qila boshladi(1).

O'zbekistonning shaharlari bo'ylab qisqa muddatli marshrutlar tashkil etilgan bo'lib, ular atigi 5-6 kunga rejalashtirilgan.



Bu muddat O'zbekistonning tarixiy-madaniy yodgorliklari bilan tanishish uchun kamlik qilar edi. 1969 yildan boshlab «Markaziy Osiyo poytaxtlari bo'ylab» nomlanishida 19 kunlik turistik marshruti joriy etildi. Mazkur sayyohlik marshruti O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston respublikalari bo'ylab tashkil etildi(2).

Turistik marshrutlarni tashkil etish va nazorat qilish sifatini oshirish maqsadida Turizm va ekskursiyalar markaziy Kengashi 1970 yil 27 oktabrda «Turistik marshrutlarni yagona tizimli raqamli kodlashtirish» haqida qaror qabul qildi(3). Unga ko'ra, respublikalar bo'yicha marshrutlar 7 ta sondan iborat (000-00-00) raqamlar bilan kodlashtirish asosida tuzila boshladi. Marshrutlarni raqamlashtirish tizimi mahalliy va xalqaro turizm shakllantirilgan yangi yo'nalishlarni tartib bilan joylashtirish imkonini berdi. Koddagi birinchi uchta raqam – marshrut manzili, ya'ni qaysi hudud (respublika, viloyat)dagi turistik tashkilotga qarashli ekanligi, to'rtinchi raqam – marshrut turi (talabgir yoki aksincha), beshinchi raqam – marshrut ahamiyati (xalqaro yoki mahalliy), oltinchi va yettinchi raqamlar marshrut tartib raqamini ifoda etar edi. Kodlashtirishning birinchi uchta raqamiga ko'ra, O'zbekiston to'rtinchi tartib raqami, marshrutlar ahamiyatiga ko'ra mahalliy marshrutlar 0 dan 8 raqamigacha, xalqaro marshrutlar esa 9 raqami bilan belgilandi. Turistik marshrutlarni shu tartibda raqamlashtirish orqali respublika turizm kengashi va unga qarashli viloyat kengashlari nomi, marshrutlar tavsifi (o'n turdan bittasi – temir yo'l, aviatsiya, avtobus va boshqalar), marshrutning xalqaro yoki mahalliy turga mansubligi, tartib raqami kabi ma'lumotlar jamlandi(4).

Bu kabi marshrutlar quyidagicha bo'lgan:

- № 235 - «Turkmaniston va Uzbekiston bo'ylab» (Ashxobod - Buxoro - Samarqand - Toshkent)
- № 241 - «Quyoshli O'zbekiston bo'ylab» (Toshkent - Yangiobod - Xiva - Buxoro - Samaqand) (uchrashuvli № 242)
- № 242 - «Quyoshli O'zbekiston bo'ylab» (uchrashuvli № 241)
- № 244 - «Ertak olamiga sayohat» (Ashxobod - Toshhovuz - Urganch - Buxoro - Samarqand)
- № 245 - «Ertak olamiga sayohat» (Ashxobod - Toshhovuz - Urganch - Buxoro - Samarqand)
- № 250 - «Payron ko'li - Tojikiston dengizi»
- № 315 - «Frunze - Toshkent - Ashxobod»
- № 408 - «Turkmaniston va O'zbekiston bo'ylab» (Ashxobod - Buxoro - Samarqand - Toshkent)
- № 423 - «Tojikiston va O'zbekiston bo'ylab» (qaytish marshruti № 428)
- № 424 - «O'zbekistonning qadimiy shaharlari bo'ylab» (Toshkent - Samarqand - Buxoro - Urganch) (uchrashuvli № 426)
- № 426 - «O'zbekistonning qadimiy shaharlari bo'ylab» (Urganch - Buxoro - Samarqand - Toshkent) (uchrashuvli № 424)
- № 428 - «O'zbekiston va Tojikiston bo'ylab» (qaytish marshruti № 423)
- № 429 - «Gissar harobalari bo'ylab» (Samarqand - Gushor ko'li - Iskandarko'l - Dushanbe) (uchrashuvli № 435)
- № 433 - «Gissar harobalari bo'ylab» (Samarqand - Gushor ko'li - Iskandarko'l - Dushanbe) (uchrashuvli № 434)
- № 434 - «Gissar harobalari bo'ylab» (uchrashuvli № 433)



- № 435 - «Gissar harobalari bo'ylab» (Dushanbe - Iskanderko'l - Gushor ko'li - Samarqand) (uchrashuvli № 429)(5).

O'zbekistonning turistik markazlarida tarixiy yodgorliklar, me'moriy majmua va ansambllar, dahalar, maydonlar, guzarlar, xonaqoh, masjidlar, madrasalar, ko'chalar, turar joylar, tabiiy muhit va arxeologik yodgorliklar tanlov asosida qisman umumlashtirilib, sayyohlik marshrutlari shakllantirilgan. Har bir yo'nalish uchun maxsus «Turistik marshrut kartochkasi» tuzilgan(6). Uning birinchi qismida marshrut nomi, turi, umumiy kilometraji, davomiyligi, turistik guruhlar soni, guruhdagi sayyohlar miqdori, kuniga necha kishiga xizmat ko'rsatilishi, xizmat ko'rsatishning boshlang'ich va so'nggi sanasi; kartochkaning ikkinchi qismida marshrutlar bo'yicha harakatlanish dasturi, turistlarni qabul qilgan turistik bazalar va ekskursiya olib borilgan ob'ektlar qayd etildi. Mavjud ma'lumotlarni o'zlashtirgan holda ekskursiya ssenariysini belgilash, talabgir marshrutlar yaratib, sayyohlarni jalb etish turistik markazlarning asosiy daromad manbaini tashkil etar edi. «1981 yilga kelib, O'zbekistonda aviamarshrutlar soni 70 taga, avtobus marshrutlari 142 taga, temir yo'l marshrutlari 10 taga yetgan»(7).

1919 yilda Samarqand viloyati xalq ta'limi Komissariati idorasida rassom O. Tatevosyan raisligida tarixiy yodgorliklarini asrashga qaratilgan komissiya tuziladi. Ushbu komissiya 1928 yilgacha faoliyat yuritadi(8).

1920 yil may oyida D. I. Nechkin boshchiligida ekspeditsiya tashkil etiladi. Bu ekspeditsiyada rassomlar Verbova, Kazakova, pedagog Yusnovskiy, injener Iofan va Vyatkinlar ishtrok etishgan. Ekspeditsiya mavjud tarixiy ob'ektlarni asl

xolatini o'rganib chiqishgan va uni asrab avaylash chora tadbirlarini ko'rishgan.

1922-1925 yillarda Shoxi Zinda va Registonda tadqiq va ta'mir ishlari olib borilgan(9).

1921 yilda Samarqandga Rossiya moddiy - madaniy tarixi akademiyasi va Boshmuzey arxitektori A. P. Udalenkov boshchiligidagi ekspeditsiya tashrif buyuradi. Ekspeditsiyaning bosh maqsadi Shoxi Zinda va Go'ri Amir tarixiy yodgorliklarini o'rganish bo'lgan. Arxitektor Udalenkov keyinchalik ham 1925 va 1927 yillarda ham Samarqandga tashrif buyuradi(10).

Samarqand asosiy turistik marshrutlardan biri hisoblangan. Oktabr inqilobidan keyin shahar Turkiston ASSR tarkibiga kirdi. 1925-1930 yillarda Samarqand O'zbekiston SSR poytaxti bo'lgan.

Sovet hokimiyati davrida shaharda ichki va tashqi turizm faol rivojlana boshladi. Samarqand va Sovet O'zbekistonining boshqa shaharlariga ko'pchilik xorijiy sayyohlar, asosan Varshava shartnomasidagi mamlakatlar va Hindistondan kelgan.

O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi akademigi I. Mo'minov tashabbusi va Sh. Rashidov ko'magida 1970-yilda Samarqandning 2500 yillik yubileyi keng nishonlandi. Shu munosabat bilan Mirzo Ulug'bek haykali ochildi, Samarqand tarixi muzeyiga asos solindi, 2 jildlik Samarqand tarixi asari tayyorlanib, nashr etildi(11).

O'zbekiston hukumatining 1982 yil 26 maydagi qaroriga binoan, Akmal Ikromov nomidagi O'zbekiston madaniyati va san'ati tarixi muzeyi bazasida Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi tashkil etilgan. Muzey-qo'riqxonaning qo'riqlanadigan hududlari sifatida tarixiy, tarixiy-topografik va



me'moriy jihatdan ko'chalar hamda kvartallarga ajratilgan. Unga ko'ra, Samarqand shahridagi bir nechta ko'chalar, me'moriy yodgorliklar, madrasa-masjidlar, ko'plab tarixiy ahamiyatga ega majmualar kiritilgan(12).

Umumiy muhofaza etiladigan hududlar jami 798 gektarni tashkil etib, shundan, Afrosiyob shaharchasi 218 gektar, O'rta asrdagi Samarqand shahri (eski shahar) 320 gektar va "Yangi shahar" 260 gektarni tashkil etgan. Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi tashkil topishidan bir yil o'tib, ya'ni 1983 yilda 1642 ta moddiy-madaniy yodgorliklar davlat muhofazasiga olingan. Ulardan 214 tasi me'moriy yodgorliklar, 335 tasi monumental san'at yodgorliklari va 1093 tasi arxeologik yodgorliklar hisoblanadi(13).

Marshrut dasturiga ko'ra, Samarqand shahridan so'ng sayohat Buxoroda davom etardi. Turistlar o'rta asr musulmon olamining markazi bo'lgan Buxoro shahridagi Ismoil Somoniy maqbarasi, Mag'oki Attoriy masjidi (X-XII asrlar), chorraha ko'chalaridagi savdo gumbazlari (tim), Kalon masjidi va minorasi (XVI-XVII asrlar) bilan tanishtirilardi.

Buxoro davlat badiiy me'morchilik muzey qo'riqxonasining 2021-2022 yildagi tashrifchilari soni 399,4 ming kishini tashkil qiladi.

Muzey 1922 yilda tashkil topgan. Muzey qo'riqxona jamg'armasi 63 mingdan ortiq. Umumiy maydoni 8320 kv. m teng. Muzey qo'riqxonaning 94 zalida 28 ta mustaqil ekspozitsiya Buxoroning rivojlanish bosqichlari, jahon sivilizatsiyasi, ma'naviy madaniyati va diniy qadriyatlariga qo'shgan hissasi va hozirgi kunda erishilgan muvaffaqiyatlaridan hikoya qiladi(14).

1993 yilda Buxoro YuNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.

1997 yilda esa YUNESKO rahnamoligida shaharning 2500 yillik yubileyi xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Buxoroda 300 dan ortiq me'moriy yodgorliklar mavjud bo'lib, ular YuNESKOning Jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Qadimgi Buxoroning barcha qiziqarli va diqqatga sazovor joylari uning tarixiy markazida joylashgan. Barcha diqqatga sazovor sayyohlik joylari zich joylashgan va ular orasidagi masofalar kichik, ammo Buxoroda ularning soni juda katta. Shunday ekan, eski masjidlar, madrasalar, savdo gumbazlari va karvonsaroylar, qal'a va muqaddas maqbaralarni ko'rish uchun sayohatga kamida bir kun ajratiladi. Labi-Hovuz majmuasidan boshlash mumkin. Bu yerda Nodir Devon-begi madrasasi, Ko'kaldosh madrasasi, Xoja Nasriddin yodgorligi, Nodir Devon-begi xonaqohi bor. Labi-Hovuzdan bir oz janubda tor ko'chalari, o'rta asrlardagi uylari va sinagogasi bo'lgan eski yahudiy mahallasi joylashgan. Xonaqoh yaqinida Toqi-Sarrofonning savdo gumbazi, bir qancha eski karvonsaroylar va Buxorodagi eng qadimiy masjid – Mag'oki-Attori gilamlar muzeyi joylashganini ko'rish mumkin. Bir oz g'arbda madrasa, masjid va go'zal minoraga ega Gavkushon majmuasi, shimolda eski bozor va yana bir gumbaz Toqi-Telpak-Furushon joylashgan. Biroz narida bir-biriga qarama-qarshi turgan ikkita madrasa – Abdulazizxon va Ulug'bek va Toqi-Zargaronning ulkan gumbazini ko'rasiz. Bu yerdan g'arbga qadim zamonlardan beri faoliyat yuritib kelayotgan, baland va go'zal minorasi, ulkan masjidi bo'lgan Mir Arab madrasasi va Poyi Kalon majmuasiga buriladi. Keyingi sayohat qadimiy Buxoro Ark qal'asi, juma masjidi va yaqinidagi zindon qamoqxonasi hisoblanadi. Arkdan g'arbda uzoq



bo'lmagan joyda Bolo-Hovuz masjidini, Chashmai Ayub maqbarasini va Somoniylar sulolasi maqbarasini ko'rish mumkin. Buxoroning tarixiy markazdan tashqaridagi diqqatga sazovor joylari – Chor Minor madrasasi va shahar tashqarisida - amir saroyi Sitorayi Mohi Hosa saroyi, Naqshbandiylar majmuasi, Chor-Bakr nekropollarida sayohatni davom ettirish mumkin(15).

Yana bir turistik markazlardan biri Farg'ona vodiysi hisoblanadi. O'zining keng turistik imkoniyatlari, qulay iqlimi sababli sayohatchilarni jalb qila oladi. Farg'ona vodiysida tarixiy-madaniy turizm imkoniyatlarini namoyish qilish maqsadida "Farg'ona vodiysi arxitektura yodgorliklari" nomli ilmiy ommabop filmning yaratilishi va xorij mamlakatlarida namoyish etilishi natijasida turistlar oqimi sezilarli darajada oshdi(16). Shuningdek, xorijlik va Ittifoq doirasida tashrif buyurgan sayyohlarni mahalliy aholining kundalik hayoti hamda madaniy yodgorliklar bilan yaqindan tanishtirish maqsadida Qo'qon – Farg'ona – Vodil – Qadamjoy – Qo'qon yo'nalishi bo'ylab turistik marshrut ishlab chiqildi(17). Natijada, madaniy yodgorliklar bo'ylab, 1975-1980 yillarda 500 marta yaqin ekskursiyalar davomida 40 mingdan ziyod o'quvchi va talabalar(18) "Bizning qadimiy o'tmishimiz" nomli tematik marshrut doirasida vodiy me'moriy va arxeologik yodgorliklari bo'ylab sayohatlar uyushtirilgan hamda barcha yo'nalishlarga avtobus qatnovi yo'lga qo'yilgan. O'quvchi va talabalar uchun mo'ljallangan "Jangovar va mehnat shuhrati joylari bo'ylab sayohat" va "Shon-shuhrat yo'li" turistik marshrutlari davomida Farg'ona vodiysida o'rnatilgan monumental yodgorliklar bilan tanishtirildi va Ikkinchi jahon urushi (1939-1945yillar) mehnat faxriylari nomi bilan

bog'liq 13 ta "Jangovar shuhrat muzeylari"ga sayohatlar tashkil etilgan. Shuningdek, o'zbek xalqiga xos milliy mehmondo'stlik qadriyatlarini namoyish etish maqsadida an'anaviy choyxonalar ham turizm marshrutlar tizimiga kiritilishi turizm rivojida muhim ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa, Qo'qon – Chust – Axsikent – Namangan – Andijon– Yozevon – Marg'ilon – Farg'ona – Vodil – Hamzaobod (hozirgi Shohimardon) – Farg'ona tarixiy shahar va qishloqlari bo'ylab 3 kunlik turistik marshrut ishlab chiqilishi nafaqat ichki turizm hatto tashqi turizm rivojida ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi(19).

O'zbekistonning asosiy turistik markazlaridan yana biri esa Xiva markazidagi "Ichon-qal'a" majmuasi xisoblanib, sayyohlik marshrutlarining tugallanish qismi sanalgan. Majmua ansambl tarzida to'liq saqlanib qolgan. Ansambl XVIII-XIX asrlardagi tarixiy muhitni o'zida aks ettiradi, eng qadimiy yodgorlik XIV asrga tegishli. O'zbekiston MSning 1969 yil 29 iyuldagi 343-sonli Qaroriga muvofiq, Xiva davlat tarixiy-me'moriy muzey-qo'riqxonasi tashkil qilindi"(20). Butunjahon YUNESKO ro'yxatiga 1990 yilda kirgan. 1997 yilda Xiva o'zining 2500 yilligini nishonlaydi. Fotosuratchi va birinchi o'zbek kinorejissyori Xudaybergen Devonov 1910 yilda Asfandiyorxonning o'z merosxo'ri bilan faytonda ketishi syujetini ilk o'zbek hujjatli filmi sifatida suratga oldi(21).

Ikkinchi jahon urushi yillarida va undan keyin ham Xiva e'tibordan chetda qolmadi. 1937-yilda "Sredazkomstaris" B. N. Zaipkin, Ya. K. Gulomov, R. Xabiyev, T. S. Stramsova, aspirantlar S.S. Moskva arxitektura institutidan Ratia va U. A. Yegorov va boshqalar boshchiligida Xorazm arxeologik ekspeditsiyasini tashkil etdi.



Ekspeditsiyaning ko'p qirrali faoliyati nafaqat arxeologik ob'ektlar va an'anaviy turar-joylarni o'rganish, balki shoshilinch rekonstruksiya tashabbuslari bo'yicha tadbirni ham o'z ichiga olgan(22).

1946 yilda Xiva me'moriy yodgorliklari bilan bog'liq konservatsiya va tadqiqot yo'nalishida yangi bosqich boshlandi. Me'mor R. R. Abdurasulov rahbarligida Anushxon hammomi, Oq masjidi, Said Aladdin maqbarasi,

Oloqulixon madrasasi, Bog'bonli jome' masjidi, Said Sholikor-boy majmuasi, Ibrohim Xo'ja madrasa-masjidi rekonstruksiya qilindi(23).

Muxtasar qilib aytganda, O'zbekistonda juda ko'plab diqqatga sazovor ob'ektlar bor. 1960 yillardan keyingina O'zbekistonning tarixiy ob'ektlariga bo'lgan qiziqish tashqi turizm salmog'ini oshiradi.

References:

- 1.Ўзбекистон Миллий архиви, Р-2776-жамғарма, 1- рўйхат, 29-иш, 58-варақ. (Перспективные планы развития туризма подведомственных организаций Узсовета по туризму на 1967-1970 гг.)
- 2.Ўзбекистон Миллий архиви, Р-2776-жамғарма, 1- рўйхат, 45-иш, 4-варақ. (Перспективные планы развития туризма подведомственных организаций Узсовета по туризму на 1967-1970 гг.)
- 3.Ўзбекистон Миллий архиви, Р-2776-жамғарма, 1- рўйхат, 71-иш, 198-варақ. (Перспективные планы развития туризма подведомственных организаций Узсовета по туризму на 1967-1970 гг.).
- 4.Мухамедова М. С. Ўзбекистон тарихий шаҳарларидаги музейлаштирилган объектларда туризмнинг шаклланиши ва ривожланиш истиқболлари (XX АСР II ЯРМИ – XXI АСР БОШЛАРИ). Тарих фан. ном. дисс. автореферати. – Lesson press. 2020. -Б. 6
- 5.Лупандин С. А. и Пеунов В. Г. Туристские путешествия по СССР. (Всесоюзные туристские маршруты по Центральным и Северо-Западным районам РСФСР, Поволжью, Уралу, Сибири, Дальнему Востоку, Казахстану и Средней Азии: описания). М., Профиздат, 1976. 224 с.
- 6.Мухамедова М. С. Ўзбекистон тарихий шаҳарларидаги музейлаштирилган объектларда туризмнинг шаклланиши ва ривожланиш истиқболлари (XX АСР II ЯРМИ – XXI АСР БОШЛАРИ). Тарих фан. ном. дисс. автореферати. – Тошкент.: Lesson press, 2020. – Б. 37.
- 7.Мухамедова М. С. Ўзбекистон тарихий шаҳарларидаги музейлаштирилган объектларда туризмнинг шаклланиши ва ривожланиш истиқболлари (XX АСР II ЯРМИ – XXI АСР БОШЛАРИ). Тарих фан. ном. дисс. автореферати. – Тошкент.: Lesson press, 2020. – Б. 38.
- 8.История Самарканда в двух томах. Под редакцией И. Муминова. Т., “ФАН” УЗБЕКСКОЙ ССР, 1970. – С. 391.
- 9.История Самарканда в двух томах. Под редакцией И. Муминова. Т., “ФАН” УЗБЕКСКОЙ ССР, 1970. – С. 393.
- 10.История Самарканда в двух томах. Под редакцией И. Муминова. Т., “ФАН” УЗБЕКСКОЙ ССР, 1970. – С. 394.



- 11.История Самарканда в двух томах. Под редакцией И. Муминова. Т., 1970 шод.
- 12.Шохиста Хасанова, Рахим Каюмов. Исполнилось 120 лет со времени создания музея в Самарканде. Kultura.uz (22 июня 2016).
- 13.Rahim Qayumov. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil. – B. 235.
- 14.<https://sputniknews-uz.com/20220518/ozbekistondagi-eng-ommabop-muzeylari-malum-boldi-24633136.html>
- 15.Бухара — жемчужина Востока / Отв. ред. Азизходжаев А. — Т. : Шарк, 1997. — С. 255.
- 16.Мансуров М. Ш. Фарғона водийсида туризмнинг ривожланиш жараёнлари ва ҳолати (1980-2018 йй). Тарих фан. ном. дисс. автореферати. – Тошкент. 2020. – 78 б.
- 17.Андрейкина, М.С. Бренд в сфере культуры и искусства. Правовая регламентация регистрации наименования учреждения //Справочник руководителя учреждения культуры. – Москва, 2004. - №10. – С. 4248. 231
- 18.Мансуров М. Ш. Фарғона водийсида туризмнинг ривожланиш жараёнлари ва ҳолати (1980-2018 йй). Тарих фан. ном. дисс. автореферати. – Тошкент. 2020. – 70 б.
- 19.Мансуров М. Ш. Фарғона водийсида туризмнинг ривожланиш жараёнлари ва ҳолати (1980-2018 йй). Тарих фан. ном. дисс. автореферати. – Тошкент. 2020. – 18 б.
- 20.Юсупов Ҳ. Хива шаҳрига саёҳат. Йўлқўрсатгич. – Урганч: 2018. – Б. 3.
- 21.Захидов П. Ш. Хива. Путеводитель. — Ташкент: Издательство ЦК КП Узбекистана, 1980. -С.67.
- 22.История Хорезма. Ташкент, 1976, С. 82
- 23.История Хорезма. Ташкент, 1976, С. 85